TEKNOLOGIK JARAYONLARNI BOSHQARISHNING AVTOMATLASHTIRILGAN TIZIMLARI	830
Bekishev Allabergen Yergashevich, Hamadulloyev Diyorbek Hasanboy o'g'li	
ESG (ENVIRONMENTAL, SOCIAL AND GOVERNANCE) TAMOYILLARINING IQTISODIY RIVOJLANISH VA KORPORATIV FAOLIYATGA TA'SIRI: MAKRO VA MIKRO DARAJADAGI TAHLIL	834
Murtozayev Sardorbek Abdijalil o'g'li	
TESTING THE STATISTICAL SIGNIFICANCE OF DYNAMIC MODELS IN ECONOMICS	838
Muradov Rustamjon Sobitkhonovich	
REAL IQTISODIY DAVRLAR NAZARIYASI VA UNDAN MAKROIQTISODIY TADQIQOTLARDA FOYDALANISH.....	843
Rustamov Narzillo Istamovich	
РАСЧЕТ РАСТЯЖЕНИЯ ДРЕВЕСИНЫ И ДЕРЕВЯННЫХ КОНСТРУКЦИЙ ИЗ МЕСТНЫХ ДРЕВЕСНЫХ МАТЕРИАЛОВ ПОД ДИНАМИЧЕСКИМИ НАГРУЗКАМИ.....	848
Юнусалиев Эльмурод Мухаммадьякубович, Ташпулатов Илхомжон Бахтиёрович	
ЦИФРОВИЗАЦИЯ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ И ПРИМЕНЕНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ ФОНДОВОГО РЫНКА: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВЫ ДЛЯ УЗБЕКИСТАНА	854
Евгений Юрьевич Шек	
ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ КЛАСТЕРОВ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО АДАПТАЦИИ В НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ.....	860
Шодмонов Қобилжон Қахрамон ўғли	
AGRAR IQTISODIYOTNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	870
Ibrohimova Maqsuda Muhammadjon qizi, Ibrohimova Muazzam Muhammadjon qizi	
XORAZM VILOYATIDA KICHIK BIZNESNING EKSPORT SALOHİYATIDAN SAMARALI FOYDALANISH VA BU BORADAGI MUAMMOLAR	873
Raxmatullayev Umarbek Ulug'bekovich	
ДАТЧИКИ ИНТЕРНЕТА ВЕЩЕЙ И ИХ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ДЛЯ МОНИТОРИНГА ТЕПЛИЧНЫХ КОМПЛЕКСОВ	878
Самадов Эльёр Эркинович	
МЕТОДЫ ОПТИМИЗАЦИИ РАБОТЫ ЭКСКАВАТОРНО-АВТОМОБИЛЬНОГО КОМПЛЕКСА КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТИ НА ОТКРЫТЫХ ГОРНЫХ РАБОТАХ	884
Аннакулов Тулкин Жовбекович, Нормонов Шамсиддин Нураддинович	
ПРОГНОЗИРУЮЩЕЕ УПРАВЛЕНИЕ СЛОЖНЫМИ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИМИ ПРОЦЕССАМИ И ПРОИЗВОДСТВАМИ НА ОСНОВЕ НЕЙРОННЫХ СЕТЕЙ	892
Гулямов Шухрат Манапович	



OLIY TA'LIM TASHKILOTI SUBYEKTLARIDA BUDJET MABLAG'LARI BO'YICHA XARAJATLAR HISOBINI YURITISH	896
<i>Xonimqulov Islom Ergash o'g'li</i>	
XIZMAT KO'RSATUVCHI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA MODDIY-TEXNIKA RESURSLARINI BOSHQARISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR	901
<i>Kamoliddinov Ilxomjon Muxammadjonovich</i>	
THE HIDE AND SHADOW ECONOMY IN UZBEKISTAN	905
<i>Koshanov Abdimurat Azat uli, Abdimuratova Altingul Kalbayevna</i>	
SHAHAR AGLOMERATSIYALARI FAOLIYATINI TAHLIL QILISH VA BAHOLASH.....	910
<i>Abdulxakimov Zuxrali Tursunaliyevich</i>	
MOL-MULK SOLIG'I HISOB VA UNI TAKOMILLASHTIRISH	914
<i>Sh.M.Ergashev</i>	
HUDUDLARDA QURILISH OBYEKTLARINI QURILISH MATERIALLARI BILAN TA'MINLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	918
<i>Najimov Iskander Perdebayevich</i>	
TOVAR MODDIY ZAXIRALAR AUDITIDA TAHLILY AMALLARNI O'TKAZISH VA ULARNING BOSQICHLARI.....	922
<i>Tajekeev Ziyatdin Kobeytinovich</i>	
МЕТОДИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К УПРАВЛЕНИЮ ЗАТРАТАМИ ПРЕДПРИЯТИЯ В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЕТА	927
<i>Минутдинова Лилия Тагировна</i>	
МОДЕРНИЗАЦИЯ ОСВЕЩЕНИЯ САЛОНОВ ВАГОНОВ МЕТРОПОЛИТЕНА ПУТЕМ ЗАМЕНЫ ЛАМП НАКАЛИВАНИЯ ЛБ-40 (ЛБ-36) НА СВЕТОДИОДНЫЕ LED-ЛАМПЫ	934
<i>Файзуллаев Асомитдин Аловитдинович, Нематов Эркин Хамраевич, Пирназаров Шохрух Холмурод угли</i>	
HUDUDY BARQAROR O'SISHDA INKLYUZIV IQTISODIY MEKANIZMLARNING ROLI	939
<i>Xamroqulov M.J.</i>	
UZBEKISTAN'S HIGHER EDUCATION SYSTEM STRENGTHENS ITS POSITION ON THE INTERNATIONAL STAGE.....	944
<i>Umarov Diyor Ravshanovich</i>	
YANGI TAKOMILLASHTIRILGAN PAXTA SEPARATORINI KORXONADA SINOV JARAYONIDAN O'TKAZISH.....	949
<i>Raximov Akbar Xolmurodovich</i>	
KICHIK BIZNESNI MOLIYALASHTIRISHNING OSIYO DAVLATLARI TAJRIBALARI: TAHLILY YONDASHUV	953
<i>Annaklichev Saxi Saparmuxamedovich</i>	
КИНЕТИЧЕСКАЯ АРХИТЕКТУРА НА ПРИМЕРЕ ДИНАМИЧЕСКИХ ФАСАДОВ	958
<i>Хаитов Суннатжон Истамович</i>	
TIJORAT BANKLARIDA MARKETING FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH VA UNING AMALIY IMKONIYATLARI.....	963
<i>Ibragimova Shahlo Alimbayevna</i>	
ЗАКОНОМЕРНОСТИ ДЕСУЛЬФУРАЦИИ МЕТАЛЛА ШВА В ЗАВИСИМОСТИ ОТ СОСТАВА ШЛАКООБРАЗУЮЩЕЙ ОСНОВЫ ФЛЮСОВ	969
<i>Абралов Музаффар Махмудович</i>	
РОЛЬ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА И ИННОВАЦИОННОЙ МОДЕРНИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ	975
<i>Бахрамов Зиядулла Баходирходжаевич</i>	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARINING INNOVATSION RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	979
<i>Yuldasheva Mexrunisa Qasimjan qizi</i>	
OLIY TA'LIM SOHASINI DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA TRANSFORMATSIYA QILISHNING INSTITUTSIONAL VA ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI	984
<i>Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li</i>	



XORIY TAJRIBASI ASOSIDA O'ZBEKISTONDA DAVLAT AKTIVLARI BO'YICHA INTERAKTIV MA'LUMOTLAR BAZASINI YARATISH ORQALI BUDJET XARAJATLARINI TAHLIL QILISH IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH.....	989
Dilshod Pulatov, Gulzara Kaxxarova	
TEMIR YO'L TRANSPORTINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	994
Raximov Xasan Shukurjonovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI	1000
Yuldashev Doniyor Tairovich	
PENSIYA JAMG'ARMALARIDA HISOBNI TASHKIL ETISH VA XARAJATLAR SMETASI IJROSI BO'YICHA HISOBOTI TAHLILI	1005
Nurmanov Karjavbay Tilevbaevich, Nurmanov Din-Axmed Tilevbaevich	
MINTAQA SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY MEXANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	1011
Axmedova Xumora Ibroxim qizi	
ELEKTR MARKAZLASHTIRISH TIZIMIDAGI BOSHQARISH VA NAZORAT RELELI BLOKINI (P62) ZAMONAVIY, KONTAKTSIZ ELEMENTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH HAMDA UNING MATEMATIK MODELINI ISHLAB CHIQISH	1015
Xujamkulov Eldor G'ayratjon o'g'li	
KLASTERLAR FAOLIYATIDA DAVLAT QO'LLAB-QUVVATLASHI VA INVESTORLAR ROLI	1026
Karimova Nilufar Sadridin qizi	
ИССЛЕДОВАНИЯ И РАЗРАБОТКИ ШЛАКООБРАЗУЮЩЕЙ ОСНОВЫ ПОКРЫТИЙ ЭЛЕКТРОДОВ ДЛЯ ИЗНОСОСТОЙКОЙ НАПЛАВКИ НА БАЗЕ МИНЕРАЛЬНО-СЫРЬЕВЫХ РЕСУРСОВ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	1030
Садыков Жахонгир Насырджанович	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA QURILISH SANOATINING INVESTITSION JOZIBADORLIGI	1039
Boltayev Umidjon Talant o'g'li	
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНФРАКРАСНЫХ ДАТЧИКОВ И ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В КОНТРОЛЕ КАЧЕСТВА ЗЕРНОВЫХ ПРОДУКТОВ	1044
Мухамедханов Улугбек Тургудович	
MINTAQA IQTISODIYOTINING IQTISODIY RIVOJLANISHINING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	1049
Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA SUN'IY INTELLEKT VA BIG DATA ASOSIDA INNOVATSION XIZMATLARNI JORIY ETISH	1054
Nuriddinov Ziyovuddinxon Zuxriddin o'g'li	
ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЕ УПРАВЛЕНИЕ ПРОЦЕССАМИ РАЗДЕЛЕНИЯ НА ОСНОВЕ БАЗ ЗНАНИЙ И ЦИФРОВЫХ МОДЕЛЕЙ	1059
Абдуллева Камола Рустамовна	
MATERIALLARNI MURAKKAB YASSI TRAEKTORIYALAR BO'YICHA DEFORMASIYALANTIRISHDA PLASTIK DEFORMASIYALANISH JARAYONLARI	1065
A.Xakimov, X.Xakimov	
ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ АВТОМОБИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭКОНОМИКИ	1073
Касымова Нозима Омиловна	
OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI TA'MINOT ZANJIRINI TAKOMILLASHTIRISHNING XORIY TAJRIBASI	1077
Bekjanov Dilmurad Yo'ldashovich	



AUDITORLIK TEKSHIRUVINI REJALASHTIRISH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	1082
Saidova Sevara Abdimumin qizi	
TIBBIYOT XODIMLARI MEHNAT FAOLLIGINI RAG‘BATLANTIRISHNING IQTISODIY JIHATLARI.....	1089
Sayitbayev Shermirza Datkamirzayevich	
RAQAMLASHTIRISH — ILM-FAN INTEGRATSIYASI, INSTITUTSIONAL O‘ZGARISHLAR VA SANOAT RIVOJLANISHINING ASOSIY OMILI.....	1094
Umurzak Ablakulovich Radjabov	
FUQAROLIK JURNALISTIKASIDA GENDER MUVOZANATI: ILMIY YONDASHUVLAR TADRIJI	1101
Zakirova Oisha Vohid qizi	
AGLOMERATSIYA BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH BO‘YICHA XORIJIY MAMLAQATLAR TAJRIBASI VA UNDAN O‘ZBEKISTONDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI	1109
Mardonov Shohruh Shuhrat o‘g‘li	
PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASSTERLARIDA LOGISTIK JARAYONLARNI OPTIMALLASHTIRISH VA TA‘MINOT ZANJIRLARINI BOSHQARISH.....	1114
Nasimov Baxtiyor Vasiyevich	
KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH BO‘YICHA DAVLAT DASTURLARI BAJARILISHIDA DAVLAT–XUSUSIY SHERIKCHILIKDAN FOYDALANISH	1122
Mirzaxalikov Bobir Baxtiyorovich	
ВЛИЯНИЕ ПАРАМЕТРОВ СЕТЕВОГО ТРАФИКА НА КАЧЕСТВО ОБСЛУЖИВАНИЯ В СОВРЕМЕННЫХ ТЕЛЕКОММУНИКАЦИОННЫХ СЕТЯХ: ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ	1127
Усманова Наргиза Бахтиёрбековна, Саиткамолова Гузаль Камильжон кизи	
TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA ORGANIK MAHSULOT ISHLAB CHIQARISHNING BARQAROR RIVOJLANISH OMILI SIFATIDA.....	1141
Mamajonova Gulbaxor Toxirjon qizi	



TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA ORGANIK MAHSULOT ISHLAB CHIQRISHNING BARQAROR RIVOJLANISH OMILI SIFATIDA

Mamajonova Gulbaxor Toxirjon qizi

University of Business and Science, o'qituvchi

E-mail: mamajonovag89@gmail.com

ORCID: 0009-0009-9640-0095

Annotatsiya. Mazkur maqolada organik mahsulot ishlab chiqarishda tadbirkorlik faoliyatining barqaror rivojlanishdagi o'rnini hamda ushbu jarayonni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda yashil iqtisodiyot konsepsiyasi doirasida organik ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi, ekologik barqarorlik va ijtimoiy ahamiyati o'zaro bog'liqlikda yoritilgan.

Kalit so'zlar: organik mahsulotlar, tadbirkorlik faoliyati, barqaror rivojlanish, yashil iqtisodiyot, davlat qo'llab-quvvatlovi, organik sertifikatlash.

Abstract. This article analyzes the role of entrepreneurial activity in the production of organic products in sustainable development and the mechanisms of state support for this process. The study highlights the interrelationship between economic efficiency, environmental sustainability, and the social significance of organic production within the framework of the green economy concept.

Keywords: organic products, entrepreneurship, sustainable development, green economy, state support, organic certification.

Аннотация. В данной статье анализируется роль предпринимательской деятельности в производстве органической продукции в контексте устойчивого развития, а также механизмы государственной поддержки данного процесса. В исследовании подчёркивается взаимосвязь экономической эффективности, экологической устойчивости и социальной значимости органического производства в рамках концепции «зелёной экономики».

Ключевые слова: органическая продукция, предпринимательство, устойчивое развитие, зелёная экономика, государственная поддержка, органическая сертификация.

KIRISH

Bugungi kunda jahon mamlakatlarida barqaror rivojlanish konsepsiyasi asosida faoliyat yuritish iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatdan taraqqiyotning muhim tamoyiliga aylanib bormoqda. Ushbu konsepsiyaga muvofiq, mamlakatda iqtisodiy o'sish, ijtimoiy farovonlik va ekologik xavfsizlik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash barqaror rivojlanish darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Xalqaro tashkilotlar tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga ko'ra, ekologik muammolar sababli 2022-yilda 32 million nafar aholi ekologik qulay hududlarga ko'chib o'tishga majbur bo'lgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2050-yilga borib 1,2 milliard nafarga yetishi mumkinligi prognoz qilinmoqda.

Xususan, mamlakatimizda Orol dengizining qurib borishi, tuproq sho'rlanishi, cho'l maydonlarining kengayishi, havoning ifloslanishi, suv resurslarining taqchilligi, maishiy va sanoat chiqindilari ko'lamining ortib borishi kabi ekologik muammolarni bartaraf etish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda [1].

Jumladan, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik muvozanatni ta'minlashda ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish va ulardan foydalanish ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mamlakatimiz iqtisodiyotining muhim tayanchi bo'lgan tadbirkorlik subyektlari faoliyatida ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish ulushining oshib borishi barqaror rivojlanish asoslarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Tadbirkorlar ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishda atrof-muhitga zarar yetkazmasdan, tabiiy resurslardan oqilona foydalangan holda, inson salomatligi uchun xavfsiz bo'lgan usullarga tayanadilar. Bunday usullarga qayta tiklanuvchi resurslardan foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash, energiya tejovchi texnologiyalarni qo'llash hamda zararli kimyoviy moddalarni qo'llamaslik kiradi. Ushbu yondashuvlar, avvalo, aholi farovonligini oshirishga, shuningdek, tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy samaradorligi va daromadlilikini kengaytirishga xizmat qilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jahon va O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini energiya samaradorligi hamda ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish bilan uyg'un holda rivojlantirish masalalari mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan keng tahlil qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasi hamda "2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining 'yashil' iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, tadbirkorlikni barqaror rivojlantirish va yashil iqtisodiyotni barpo etish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Mahalliy olimlar D. Xolboyev, Sh. Mamarasulov, B. Xodiyev va boshqalarning ilmiy ishlarida tadbirkorlikni barqaror rivojlantirish, ushbu yo'nalishdagi muammolarni bartaraf etish, aholi bandligini ta'minlash hamda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish samaradorligi har tomonlama tahlil qilingan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada belgilangan tadqiqot vazifalarini hal etish maqsadida statistik va solishtirma tahlil usullari, korrelyatsion va regressiya tahlili, so'rovnoma hamda boshqa ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi.


Ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish hajmining kengayishi asosan iqtisodiy erkinlik darajasining oshishi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilishi, moliyaviy xizmatlar tizimining soddalashtirilishi va tadbirkorlarga yaratilgan qulay sharoitlar bilan bog'liq bo'lib, aynan ushbu omillar tadqiqotning asosiy yo'nalishlarini belgilab berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Butun dunyo mamlakatlari miqyosida barqaror rivojlanish darajalariga e'tibor qaratiladigan bo'lsa, ishlab chiqarish kompaniyalarining 36 foizi o'z faoliyatida barqarorlik choralarini joriy etgani, sanoat korxonalarining esa 28 foizi ta'minot zanjirida barqarorlik tamoyillariga ustuvor ahamiyat berayotgani kuzatilmoqda.

Barqaror rivojlanishning yetakchi yo'nalishlaridan biri hisoblangan organik mahsulotlar ishlab chiqarish sohasida faoliyat yuritayotgan ishlab chiqaruvchilar soni 4,3 million nafardan oshib, hozirgi kunda 170 dan ortiq mamlakatda organik qishloq xo'jaligi rivojlanib bormoqda. Shu bilan birga, organik qishloq xo'jaligi yer maydonlari 2023-yilda 98,9 million gektarni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2022-yilga nisbatan 2,6 foizga o'sganini ko'rsatadi [6].

Tadbirkorlik faoliyatida barqaror rivojlanish tamoyillariga amal qilinishi korxonalar faoliyatining strategik maqsadlariga erishishiga, raqobatbardoshlikni oshirishga hamda uzoq muddatli iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashga xizmat qilishi mumkin (1-rasm).



1-rasm. Tadbirkorlik faoliyatida ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishning natijalari




Yuqoridagi chizma asosida tadbirkorlik faoliyatida barqaror rivojlanish tamoyillari hamda ularni joriy etishning ijobiy natijalarini ko'rish mumkin. Tadbirkorlar faoliyatida ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish mamlakatimizda ustuvor maqsad va vazifalar qatoriga kiradi. Ushbu yo'nalish bo'yicha erishilayotgan natijalarni quyidagicha izohlash mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qurilish materiallari sanoatini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori asosida ekologik toza, resurs tejamon va energiya samarador qurilish materiallari ishlab chiqarishni kengaytirish hamda qurilish jarayonlarida bunday materiallardan bosqichma-bosqich foydalanishni yo'lga qo'yish vazifasi belgilangan. Mazkur chora-tadbirlar natijasida ekologik toza qurilish materiallari ulushini kamida 25 foizga yetkazish maqsad qilib olinmoqda.

Issiqxonalarda energiya sarfini 60–80 foizgacha kamaytirish va hosildorlikni 35–50 foizgacha oshirish imkonini beruvchi "aqlli" plyonka texnologiyasi ishlab chiqilib, sinov tariqasida amaliyotga joriy etilmoqda. Ushbu texnologiya issiqxonalarni yoqilg'isiz, chiqindi gazlarsiz isitish hamda yoz mavsumida sovitib turish imkonini yaratib, ekologik va iqtisodiy samaradorlikni ta'minlamoqda.

2025-yilda O'zbekistonning yirik quyosh panellari yetkazib beruvchi kompaniyalaridan biri tomonidan quvvati 100 megavatt bo'lgan quyosh panellari yetkazib berilishi yo'lga qo'yildi. Mazkur panellar hisobiga yiliga 100 ming tonnagacha karbon dioksid (CO_2) chiqindilarini kamaytirish imkoniyati yaratilmoqda.

Jahon miqyosida olib borilayotgan ishlar natijalariga e'tibor qaratilsa, global organik oziq-ovqat bozori barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda. Xususan, 2024-yilda organik oziq-ovqat bozori hajmi 226,8 milliard dollarni, 2025-yilda esa 254,4 milliard dollarni tashkil etishi kutilmoqda. Prognozlariga ko'ra, 2033-yilga borib ushbu ko'rsatkich 639 milliard dollarga yetadi. Bu ma'lumotlar organik mahsulotlarga bo'lgan talabning yildan-yilga ortib borayotganini va bozor salohiyatining yuqori ekanini ko'rsatadi. Mazkur dinamikani quyidagi diagramma asosida yaqqol ko'rish mumkin (1-diagramma).



1-diagramma. Global organik oziq-ovqat bozori qiymati

Mamlakatimizda ham ekologik toza mahsulotlarning muhim turi hisoblangan organik mahsulotlarni ishlab chiqarishni rivojlantirish so'nggi yillarda davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Jumladan, 2022-yilda "Organik mahsulotlar to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi organik mahsulotlarni ishlab chiqarish, qayta ishlash, markirovkalash va realizatsiya qilish jarayonlarini huquqiy jihatdan tartibga soldi. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining qarori bilan organik qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini ixtiyoriy sertifikatlashtirish tartibi belgilandi. Mazkur mexanizm mahsulot sifati hamda iste'molchilar ishonchini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Tadbirkorlik faoliyatida organik mahsulotlar ishlab chiqarish daromadlarni va ishlab chiqarish rentabelligini oshirishga, shuningdek, raqobatbardoshlikni kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Chunki bunday mahsulotlar yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lib, bozor sharoitida nisbatan yuqori narxlarda realizatsiya qilinadi. Ijtimoiy jihatdan esa qishloq hududlarida yangi ish o'rinlarini yaratish, aholi daromadlarini oshirish hamda sog'lom oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabni qondirish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, mazkur jarayonlarda bilim va malakaga bo'lgan ehtiyojning ortishi inson kapitalini rivojlantirish orqali ijtimoiy farovonlikka ijobiy



ta'sir ko'rsatmoqda. Organik mahsulotlar ishlab chiqarish bozor segmentlarini diversifikatsiya qilish va eksport salohiyatini kengaytirishda kichik biznes subyektlari hamda fermer xo'jaliklari uchun muhim yo'nalish sifatida namoyon bo'lmoqda.

Bugungi kunda respublikamizda yetishtirilayotgan mahsulotlarning qariyb 5 foizi tabiiy mahsulotlarga to'g'ri keladi. Sifati yuqori bo'lgan 14 ming gektar maydonda organik mahsulotlar, jumladan, 8,5 ming gektar paxta, 2 ming gektar g'alla, 2,2 ming gektar meva-sabzavot hamda 1,1 ming gektar dorivor (kovul) ekinlari yetishtirilmoqda. Ushbu ko'rsatkichlar mamlakatimizda organik mahsulotlar ishlab chiqarish salohiyati mavjudligini ko'rsatadi va tadbirkorlar faoliyatida ushbu yo'nalishni yanada kengaytirish muhim ekanini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, sohani yanada rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida quyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:

- organik mahsulot ishlab chiqarishga o'tish jarayonida sertifikatlash, ishlab chiqarish texnologiyalarini moslashtirish va o'g'itlash tizimini takomillashtirish dastlabki investitsiya ehtiyojini oshiradi, bu esa davlat va moliyaviy institutlar tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish zaruratini ko'rsatadi;

- organik mahsulotlarni sertifikatlash bo'yicha malakali mutaxassislar va inspeksiya organlari faoliyatini kengaytirish orqali jarayonlarni tezlashtirish hamda sertifikatlash tizimini yanada shaffof va qulay qilish imkoniyati mavjud;

- davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorligini baholash uchun sertifikatlangan ishlab chiqaruvchilar soni, ishlab chiqarish hajmlari va eksport ko'rsatkichlari bo'yicha tizimli statistik ma'lumotlar bazasini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi;

- organik mahsulotlar tannarxini pasaytirish va iste'molchilar orasida ekologik madaniyatni oshirish orqali bozorda barqaror talabni shakllantirish ushbu mahsulotlarning ommalashuviga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rinda shuni ta'kidlash mumkinki, yuqorida ko'rib chiqilgan masalalarning samarali yechimi sifatida organik mahsulot ishlab chiqarishga o'tayotgan tadbirkorlik subyektlari uchun davlat tomonidan grantlar, imtiyozli kreditlar va subsidiyalar hajmini oshirish, sertifikatlash bilan bog'liq xarajatlarni qisman qoplash mexanizmlarini joriy etish, shuningdek, organik mahsulotlar yo'nalishida hududlarda maslahat va axborot xizmatlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, davlat monitoring tizimini takomillashtirish, statistik ma'lumotlar bazasini shakllantirish, shuningdek, marketing, logistika va eksportni qo'llab-quvvatlash dasturlarini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish tadbirkorlarning ushbu tarmoqdagi faoliyatini kengaytirish uchun mustahkam institutsional asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadbirkorlik faoliyatida ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish mamlakatning barqaror rivojlanishini ta'minlash, ya'ni iqtisodiy o'sish, ijtimoiy farovonlikni oshirish, yashil iqtisodiyotni shakllantirish hamda ekologik muvozanatni mustahkamlash uchun muhim poydevor sifatida qaralishi mumkin. Ushbu yo'nalishning izchil rivojlanishi uzoq muddatli istiqbolda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish va aholi hayot sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi. https://president.uz/oz/pages/view/strategy?menu_id=144&utm_source=chatgpt.com
2. "Organik mahsulotlar to'g'risida"gi Qonun. 2022-yil.
3. Анисимов, А. П., Рыженков, А. Я., Черноморец, А. Е. Экологическое предпринимательство: проблемы и перспективы // Правовое пространство России: опыт и современность. – Чебоксары: Чувашский государственный университет, 2008. – С. 7–10.
4. Симбирева, И. Д., Шматова, В. М. Экологическое предпринимательство как тенденция развития современных компаний // Актуальные исследования. Международный научный журнал. – № 46 (228). – 2024.
5. "O'zbekiston Respublikasi Tadbirkorlik kodeksi". 2024-yil 15-avgust.
6. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy sayti: <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/small-business-and-entrepreneurship-2>
7. IFOAM – Organics International rasmiy sayti: <https://www.ifoam.bio/>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100